E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MEDIADISKURSIDA YANGILIKLARNING LINGVOKULTUROLOGIK JIHATLARI

Crossref Doi : https://doi.org/10.37547/iqro-volume04-issue01-01

A'zamova Gulasal
Farg'ona Davlat Universiteti
Gumanitar yonalishlar boyicha chet tillari kafedrasi oqituvchisi f.f.f.d PhD

Abdusamatova Madinabonu
Farg'ona Davlat Universiteti
Pedagogika va psixologiya fakulteti 1-bosqich 22,34-guruh talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz va o`zbek mediadiskursida yangiliklarni tahlil etishning struktural-semantik, kommunikativ-pragmatik hamda lingvokulturologik jihatlari muhokama etiladi.

Kalit so'zlar

Tarjima, ingliz tili, jurnal, yangiliklar, kommunikatsiya.

KIRISH

Ma'lumki, XXI asr O'zbekiston uchun tub o'zgarishlar, yangilanishlar va tiklanishlar asri bo'ldi. Ijtimoiy tuzum ham, davr ham o'zgardi. Davr o'zgarishi o'z-o'zidan barcha sohalar, xususan, ma'naviy sohada qat'iy yevrilishlar, tub burilishlarni - taqozo qildi. Bu tabiiy jarayon. Zero, til, adabiyot, san'at kabi soha vakillari o'zgarishlarga tez moslashadilar, hamda asarlarida davr ruhini u yoki bu ko'rinishda aks ettirishadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqning milliy madaniyati va o'ziga xosligini ifoda etuvchi vosita bo'lmish o'zbek tilini rivojlantirish, bu tilning davlat maqomini izchil va to'liq ro'yobga chiqarish, Respublika hududida yashovchi xalqlarning milliy madaniyatlari va tillariga o'zaro hurmat bilan munosabatda bo'lish" davlatimiz oldidagi muhim vazifalardan biri ekanligini ta'kidlagan edi1. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, mustaqillik tufayli xalqimiz hayotida yangi ijtimoiy munosabatlar shakllandi, mavjudlari takomillashdi. Bu hol ayniqsa diplomatik aloqalarda, internet tizimining yuzaga kelishida, axborot texnologiyalarining takomillashuvida, xalqaro tajribalarning kirib kelishida, yangi iqtisodiy, diniy, madaniy munosabatlarning shakllanishida ko'rinadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Bugungi kunda informatsiya va zamonaviy aloqa vositalari yordamida matbuotda xorijiy nashrlardan olingan axborotlar tarjima qilib chop etilmoqda. Ammo tarjimalardagi asliyat uslubi va nashrlar formatini tushunmaslik oqibatida asliyatga zid tarjimalar matbuot yuzini ko'rmoqda.

Tarjimashunoslikning dolzarb muommalaridan biri xorijiy nashrlarning stilistik xususiyatlari va ularni tarjima qilish muommalarini o‘rganishdan iborat. Mamlakatimiz iqtisodiyoti jadal sur’atlarda o‘sib bormoqda. Iqtisodiyotning rivojlanishi nafaqat tadbirkorlar, balki tilshunos tarjimashunoslar uchun ham bir qator vazifalar yuklaydi. O‘zbekistonda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar eksporti va mamlakatimiz bozorlarini bezab turgan import tovarlar reklamalarini yaratish hamda tarjima qilish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Ammo shuni ta’kidlash joizki, mahsulot reklamalari dastlab mahalliy bozorni zabt etish uchun yaratiladi va ulardagi ma’no o‘zbek iste’molchilariga butunlay tanish bo‘lmasligi mumkin. Bu esa yangiliklar (news), reklama matnlari tarjimasi borasida jiddiyroq tadqiqodlarni olib borish uchun asos bo‘la oladi. Zamonaviy tarjimashunoslik oldida turgan dolzarb vazifalardan biri – xalqaro brendlar va import mahsulotlar tarjimasida reklama matnining uslubi va qonuniyatlarini ishlab chiqish. Tarjimada qo‘llanadigan stilistik transformatsiyalarni qiyosiy tadqiq qilishdir.

Matn bir tildan umuman boshqa til sistemasiga kiruvchi boshqa bir tilga tarjima qilinayotganda transformatsiyalarsiz tarjimani amalga oshirib bo’lmaydi. Quyida Amerika jurnalida chiqqan Xeminguey asarlarining tarjimasida ishlatilgan transformatsiyalardan misollar keltirib o’tamiz. Adibning barcha asarlari to’g’ridan-to’g’ri emas, balki, vositachi til, rus tili, yordamida tarjima qilngan bo’lgani uchun ingliz va o’zbek tildagi misollar bian birga ularning ruscha variantlarini ham berib o’tamiz. Masalan*: Everything about him was old except his eyes and they were the same colour as the sea and were cheerful and undefeated.*

Cholda nimaki bor bo’lsa, bari ham eski, faqat dengiz tusini olgan moviy, mardona odamlarnikiga xos quvnoq ko’zlari bundan mustasno edi.

Yuqoridagi misoldan ko’rinib turibdiki, sintaktik transformatsiyalar ko’p hollarda morfologik transformatsiyalar bilan birga qo’llaniladi. Transformatsiyalarni quyidagi asosiy turlari bo’yicha ko’rib chiqamiz:

1) o’rin almashtirish
2) almashtirish
3) qo’shish;
4) tushirib qoldirish.

O’rin almashish - bu til elementlarining asliyatdagi joylashuvini o’zgartirish. Bu gap tarkibidagi so’z va so’z birikmalari tartibining yoki qo’shma gapni tashkil etgan gaplar tartibining o’zgarishidir:

When the boy came back the old man was asleep in the chair and the sun was down.
Bola qaytib kelganda kun botgan, chol esa kursida o’tirgancha uyquga ketgan edi.

Almashtirish – tarjima transformatsiyasining eng keng tarqalgan turi hisoblanadi. Buning bir nechta turlari bor:

1) asliyatdan tarjima qilinayotganda gapning sintaktik sxemasi qayta quriladi:
“You have beautiful hair” I said.
“Sochingiz chiroyli ekan”, dedim men
2) qo’shma gapni sodda gap bilan almashinishi:
“Smooth as emery paper and very hard on piano keys”.
“Royal klavishlariga jilvir yurgizganday”.
3) sodda gapni qo’shma gap bilan almashinishi:

But none of these scars were fresh. They were as old as erosions in a fishless desert.

Ammo bu izlar ichida yangisi yo'q, hammasi ham uzoq suvsizlikdan qaqrab yotgan biyobon ko'hna edi.

XULOSA VA MUNOZARA

Umuman olganda, badiiy-tasviriy ifodalar, ulardan mohirona foydalanish ularni ustalik bilan o'zaro biriktirish –bu yangilik hissini uyg'ota olishni o'z ichiga oladi. Har qanday ifoda vositasi, ayniqsa, agar u emotsional-ekspressiv ta'sir ko'rsatishga mo'ljallangan bo'lsa, vaqt o'tishi bilan o'zifodalilik kuchini yo'qotadi, undagi baholash xususiyatlari esa yangilanish yoki o'zgarishga moyil bo'lib qoladi. Quyidagi misollarda shu holatni kuzatish mumkin.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Klushina N.I. Pragmatik aspektda jurnalistik matn//Ommaviy va shaxslararo muloqot tili. -M.: MediaMir, 2017. -b.75.
2. Moskvin V.P. Zamonaviy rus nutqining ifodali vositalari, yo'llari va raqamlari. Terminologik lug'at. -M.: Feniks, 2017. -b. 867.
3. Media tili fanlararo tadqiqot ob'ekti sifatida. 2-qism. -M.: Iz-vo Mosk. un-ta, 2014. -b. 285.
4. Solganik G. Ya. Muallif jurnalistik matnning uslub yaratuvchi kategoriyasi sifatida // Sintaktik stilistika. M., 2016. b. 202–211.
5. Ковалевская Е.В. МЕТАФОРА Вестник им. Н.А. Некрасова. No 3, 2019. –С.80-85.
6. Рахматов, З. Н., & Рашидов, Д. Н. (2023). Пути совершенствования механизма разработки маркетинговой стратегии ао «ўзтемирйўлйўловчи». Innovative achievements in science 2022, 2(17), 55-60.

WORDLY KNOWLEDGE